



ISSN: 2181-0796

DOI: 10.26739/2181-0796

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

**TIL, TA'LIM, TARJIMA  
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ  
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF  
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



**Alisher Navoi**

**VOLUME 4  
ISSUE 6**

**2023**



# **TIL, TA'LIM, TARJIMA**

4-SON, 6-JILD

---

# **ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

НОМЕР-4, ВЫПУСК-6

---

# **LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**

VOLUME-4, ISSUE-6



TOSHKENT-2023

# TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

№6 (2023) DOI

## Bosh muharrir:

**Mirzayev Ibodulla**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)

## Bosh muharrir o'rinbosari:

**Ismoilov Salohiddin**  
f.f.n., professor (O'zbekiston)

### TAHRIR HAY'ATI:

<b>Bakirov Poyon</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Qulmamatov Do'smamat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Boqiyeva Gulandom</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Rasulov Ravshamxo'ja</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Dadaboyev Hamidulla</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Safarov Shahriyor</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Eltazarov Jo'liboy</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Shahobiddinova Shohida</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Isakova Nodira</b> PhD, dotsent (O'zbekiston)	<b>Sobirov Anvar</b> PhD (O'zbekiston)
<b>Kiselyov Dmitriy</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Tagayeva Sayyora</b> PhD, dotsent (O'zbekiston)
<b>Labib Said Mohammad Alem</b> f.f.d., dotsent (Afg'oniston)	<b>Ubaydullayeva Maftuna</b> PhD, dotsent (O'zbekiston)
<b>Mamatov Abdi</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Uluqov Nosirjon</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Mirzayev Rahmatulla</b> huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)	<b>Umurqulov Bekpo'lat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Mirzohidova Muyassar</b> f.f.d., professor (Qirg'iziston)	<b>Xasanov Axmad</b> mas'ul kotib, PhD (O'zbekiston)
<b>Nadim Mohammad Humoyun</b> PhD (Afg'oniston)	<b>Xayrullayev Xurshid</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Pardayev Azamat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Yo'ldoshev Qozoqboy</b> p.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Qodirova Barno</b> kotib, PhD, dotsent (O'zbekiston)	

### ILMIY MASLAHAT KENGASHI:

<b>Abdiyev Murodqosim</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>Suvonova Nigorabonu</b> f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
<b>Baqoyeva Muhabbat</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	<b>To'xtasinov Ilhom</b> p.f.d. (O'zbekiston)
<b>Berdaliyev Abduvali</b> f.f.d., professor (Tojikiston)	<b>Yoqubov Jmoliddin</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)
<b>Jabborov Xo'jamurod</b> f.f.d., dotsent (O'zbekiston)	
<b>Karimov Suyun</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Mamatov Abdug'ofur</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Mo'minov Siddiq</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Raximov G'anisher</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	
<b>Sayfullayeva Ra'no</b> f.f.d., professor (O'zbekiston)	

**Sahifalovchi:** Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

№6 (2023) DOI

**Главный редактор:**

**Мирзаев Ибадулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Исмаилов Салахиддин**  
к.ф.н, доцент (Узбекистан)

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

<b>Бакиров Поён</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Кулмаматов Дусмамат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Бакиева Гуландом</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Расулов Равшанхужа</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Далабаев Хамидулла</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Сафаров Шахриёр</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Элгазаров Жулибай</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Шахабиддинова Шахида</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Исакова Нодира</b> PhD, доцент (Узбекистан)	<b>Собиров Анвар</b> PhD (Узбекистан)
<b>Киселев Дмитрий</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Тагаева Сайёра</b> PhD, доцент (Узбекистан)
<b>Лабиб Саид Моҳаммад Алем</b> д.ф.н., доцент (Афғонистон)	<b>Убайдуллаева Мафтуна</b> PhD, доцент (Узбекистан)
<b>Маматов Абди</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Улуков Насиржан</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Мирзаев Раҳматулла</b> юрист, доцент (Узбекистан)	<b>Умуркулов Бекпулат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Мирзахидова Муяссар</b> д.ф.н., профессор (Киргизистан)	<b>Хасанов Ахмал</b> отв. секретарь PhD (Узбекистан)
<b>Надим Моҳаммад Хумоюн</b> PhD (Афғонистон)	<b>Хайруллаев Хуршид</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Пардаев Азамат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Йулдашев Казакбай</b> д.п.н., профессор (Узбекистан)
<b>Кадирова Барно</b> секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)	

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ:**

<b>Абдиев Мурадқасим</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Сувонова Нигорабону</b> к.ф.н., доцент (Узбекистан)
<b>Бакоева Мухаббат</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	<b>Тухтасинов Илхам</b> д.п.н., профессор (Узбекистан)
<b>Бердалиев Абдували</b> д.ф.н., профессор (Таджикистан)	<b>Якубов Жамалиддин</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)
<b>Жаббаров Хужамурал</b> д.ф.н., доцент (Узбекистан)	
<b>Каримов Суюн</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Маматов Абдугафур</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Муминов Сиддик</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Рахимов Ганишер</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	
<b>Сайфуллаева Раъно</b> д.ф.н., профессор (Узбекистан)	

**Вёрстка:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: [http://www.tadqiqot.uz/;](http://www.tadqiqot.uz/)  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

№6 (2023) DOI

## Chief Editor:

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scienc.,  
prof. (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

**Ismailov Salokhiddin**  
Cand. of phil. sciences, assistant  
professor (Uzbekistan)

### EDITORIAL BOARD:

<b>Bakirov Poyon</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Kulmamatov Dusmamat</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Bakieva Gulandom</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Rasulov Ravshankhuj</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Dadaboev Khamidulla</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Safarov Shakhriyor</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Eltazarov Juliboy</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Shakhobiddinova Shokhida</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Isakova Nodira</b> PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)	<b>Sobirov Anvar</b> PhD (Uzbekistan)
<b>Kiselyov Dmitriy</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Tagayeva Sayyora</b> PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Habib Said Mohammad Alem</b> doc. of phil. scienc. (Afg'oniston)	<b>Ubaydullayeva Maftuna</b> PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Mamatov Abdi</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Ulukov Nosirjon</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Mirzaev Rahmatulla</b> lawyer, assoc. prof. (Uzbekistan)	<b>Umurkulov Bekpulat</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Mirzokhidova Muyassar</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Kirghizistan)	<b>Hasanov Ahmad</b> senior secretary, PhD (Uzbekistan)
<b>Nadim Mohammad Humoyun</b> PhD (Afg'oniston)	<b>Hayrullaev Hurshid</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Pardaev Azamat</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Yuldashev Kazakbay</b> Doc. of ped. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Kadirova Barno</b> Secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)	

### SCIENTIFIC ADVISORY COUNCIL:

<b>Abdiev Murodkosim</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Suvonova Nigorabonu</b> Cand. of phil. sciences, assoc. prof. (Uzbekistan)
<b>Bakaeva Mukhabbat</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	<b>Tukhtasinov Ilhom</b> doc. of ped. scienc. (Uzbekistan)
<b>Berdaliev Abduvali</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Tajikistan)	<b>Yakubov Jamoliddin</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)
<b>Jabborov Khojamurod</b> Doc. of phil. scienc., assoc. prof. (Uzbekistan)	
<b>Karimov Suyun</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	
<b>Mamatov Abdugafur</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	
<b>Muminov Siddik</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	
<b>Rakhimov Ganisher</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	
<b>Sayfullaeva Rano</b> Doc. of phil. scienc., prof. (Uzbekistan)	

**Pagemaker:** Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;  
Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz) Тел: (+998-94) 404-0000

# MUNDARIJA\СОДЕРЖАНИЕ\CONTENT

---

## T I L S H U N O S L I K

<b>1.M.Buzrukova</b>	
Turistik diskursning lingvistik maqomi va o'ziga xos xususiyatlari.....	7
<b>2.A.Axmedov</b>	
Nemis-o'zbek lisoniy aloqalari hamda bu tillarda tilning sofligini saqlash masalasi.....	21
<b>3.N.Sadinova</b>	
Antitezaning lingvopoetik imkoniyatlari (Anvar Obidjon she'rlari misolida).....	36
<b>4.A.Gapparov</b>	
Ijtimoiy-siyosiy leksikaning til tizimida aks etishi va sotsiolingvistik tahlili.....	46
<b>5.A.Жаббаров</b>	
Монопредикатив бирликлар ва уларнинг синтактикаси хусусида.....	56
<b>6.O.Eshboyeva</b>	
Transformatsiya nazariyasining jahon tilshunosligidagi tavsifi.....	63
<b>7.M.Ибрагимова</b>	
Бадий матнларда сўз-гапларнинг структур-семантик хусусиятлари.....	71
<b>8.M.Зайниева</b>	
Мураккаб синтактик бутунлик глобал синтактик қурилманинг конститутив компоненти сифатида.....	79
<b>9.M.Зайниддинов</b>	
Киноя феномени: лингвистик ва адабий тавсиф.....	85
<b>10.T.Oydinov</b>	
Fonetik - fonologik sath va uning o'rganilishi.....	92
<b>11.M.Mardiyeva</b>	
Barqaror birikmalar va ularning turlari haqidagi nazariy qarashlar tahlili.....	99
<b>12.S.Ulugmuratova</b>	
Badiiy va diniy matnlarda ona siymosi talqinining ifodalanishi.....	105
<b>13.S.Alimova</b>	
Ot so'z turkumida son grammatik kategoriyasining ifodalanishi.....	112
<b>14.I.Xaydarova</b>	
Jahon tilshunosligi tarixida tilning morfem sathi haqidagi tadqiqotlar va ularga munosabat.....	120

## T A' L I M S H U N O S L I K

<b>15.M.Xalova</b>	
Mumtoz adabiyotda ayol ijodkorligi fenomeni.....	131

## T A Q R I Z

<b>A.Pardayev, D.Mamirova</b>	
"O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati" borasida mulohazalar.....	141

# ТИЛ, ТАЪЛИМ, ТАРЖИМА ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

**Gapparov Alibek**  
SamDVMChBU xorijiy tillar  
kafedrası katta o'qituvchisi  
Samarqand, O'zbekiston ali\_bek85@mail.ru

## IJTIMOIY-SIYOSIY LEKSIKANING TIL TIZIMIDA AKS ETISHI VA SOTSIOLINGVISTIK TAHLILI

### ANNOTATSIYA

Tilning rivojlanish jarayoni, asosan, ichki omil, shuningdek, tashqi omillar hisobiga kengayishidan iborat. Bugungi kun tillararo globallashuv jarayoni sabab dunyo tillari lug'at tarkibining boyib borishida ekstralingvistik faktorning faollashganini ham alohida ta'kidlab o'tish joiz. Xalq bu - jamoaviy birlik sifatida ajratib turadigan umumiy tarixiy, madaniy, til va ijtimoiy xususiyatlar bilan birlashgan shaxslarning ijtimoiy-madaniy hamjamiyatini bildiradi. Xalq tushunchasi uning a'zolari o'rtasida manfaatlar, qadriyatlar va o'ziga xoslik jamiyatining mavjudligini nazarda tutadi. Ilmiy tadqiqotlar doirasida "xalq" tushunchasini siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarni hisobga olgan holda hamda ijtimoiy fanlar doirasida ham tahlil qilish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-siyosiy leksika, til tizimi, globallashuv, madaniy aloqa, til mohiyati, evolyutsion holat, til va siyosat, media nutqi, gazeta auditoriyasi, so'rovnoma

**Gapparov Alibek**  
SamSUVMLB senior teacher  
of the foreign languages department  
Samarkand, Uzbekistan  
ali\_bek85@mail.ru

## REFLECTION OF SOCIO-POLITICAL VOCABULARY IN THE LANGUAGE SYSTEM AND SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS

### ABSTRACT

The process of language development consists mainly of expansion due to internal factors, as well as external factors. Today, due to the process of interlinguistic globalization, it is worth noting that the extralinguistic factor has been activated in the enrichment of the vocabulary of world languages. Nation means a socio-cultural community of individuals united by common historical, cultural, linguistic and social characteristics that distinguish them as a collective unit. The concept of the people implies the existence of a community of interests, values and identity among its members. In the framework of scientific research, the concept of "nation" can be analyzed taking into account political, economic

and cultural aspects, as well as within the framework of social sciences.

**Keywords:** socio-political lexicon, language system, globalization, cultural communication, language essence, evolutionary state, language and politics, media discourse, newspaper audience, survey

**Гапбаров Алибек**

старший преподаватель кафедры  
иностраннных языков СамГУВМЖБ  
Самарканд, Узбекистан  
ali\_bek85@mail.ru

## ОТРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

### АННОТАЦИЯ

Процесс развития языка состоит в основном из расширения за счет внутренних факторов, а также внешних факторов. Сегодня, в связи с процессом межъязыковой глобализации, стоит отметить, что в обогащении словарного запаса мировых языков активизировался экстралингвистический фактор. Нация означает социокультурную общность индивидов, объединенных общими историческими, культурными, языковыми и социальными характеристиками, отличающими их как коллективную единицу. Понятие народа предполагает существование общности интересов, ценностей и идентичности среди его членов. В рамках научных исследований понятие "нация" может анализироваться с учетом политических, экономических и культурных аспектов, а также в рамках социальных наук.

**Ключевые слова:** общественно-политическая лексика, языковая система, глобализация, культурная коммуникация, сущность языка, эволюционное состояние, язык и политика, медиадискурс, газетная аудитория, опрос

Ma'lumki, tilshunoslik sohalari orasida jamiyatdagi o'zgarishlarga mutanosib ravishda o'zini yangilab turuvchi, yangilanishlarga nisbatan tez va tayyor turuvchi soha leksikologiya hisoblanadi. Zero, O.U.Shukurov "Ta'limda o'zbek tilining leksik fondiga ta'sir qiluvchi omillar xususida" nomli maqolasida "... til o'zining muayyan lug'at tarkibiga ega bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yoki iqtisodiy-siyosiy hayotning rivojlanishini o'zida aks ettiradi, jamiyat rivojlanishi bilan hamohang taraqqiy etadi. Tillar xalqlarning o'zaro savdo-sotiq, madaniy aloqa, migratsiya jarayoni, hatto davlatlar o'rtasidagi urush va hokazolar ta'sirida ham stixiyali tarzda ommalashadi hamda taraqqiy etadi. Bu esa ularning differensiya yoki integratsiya hodisalari asosida amalga oshadi" [21.P.63].

Zero, til - bu tizim va uning tadqiqi nihoyatda qiyin jarayon. Tilning mohiyatini anglashga maxsus texnika va fikrlash orqali erishish mumkinligi borasida tadqiqotchilar tomonidan fikrlar bildirilgan. Til muayyan jamoa o'rtasida ma'noni bildirish va axborot almashish uchun foydalaniladigan tovushlar, so'zlar va belgilar majmuasiga asoslangan ijtimoiy-an'aviy muloqot tizimi sifatida qaralar ekan, u asosiy aloqa vositasi bo'lib, grammatika, lug'at va semantikani o'z ichiga olgan tuzilishga ega. Shuningdek, u muloqotga kirishuvchilarning madaniyati, tarixi va jamiyatining xususiyatlarini aks ettiruvchi sotsial-madaniy kod bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikda tilni o'rganish uning tovush tuzilishi, grammatikasi, semantikasi va uning rivojlanishini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Ta'kidlash joizki, tilning evolyutsion holati jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq. Jamiyatdagi barcha o'zgarishlar tilda aks etadi va tildagi yuz berayotgan o'zgarishlarga jamiyatning ongli aralashuvi zarur, degan g'oyani ilgari surishga asos bo'ladi. Bu, o'z o'rnida, "til



siyosati" tushunchasi bilan bog'liq. Til va xalqni bir-biridan ayro holda tasavvur etish qiyin. Darhaqiqat, N.Maxmudovning fikricha: "Tilsiz xalq va xalqsiz til tushunchalari mohiyatdan mutlaqo mahrumdir. Xalq tilning tillo beshigida balog'atga yetadi, til esa o'z sohibi bo'lmish xalqning qalbidan kuch oladi, uning ardog'ida tarovat topadi. Til xalq birligining, xalq esa til barhayotligining poydor posbonidir" [8.Б.72].

Har qanday millatning asosiy belgilari orasida til faktori mavjud va bu davlatning xalqaro maydondagi imijini ko'rsatadi. Shunday ekan, bu muammoni tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan muayyan jabhada o'zaro yaqinlashuvi natijasida "Medialingvistika" va "Sotsiolingvistika" yo'nalishlarning paydo bo'lishi doirasida tadqiq etish lozim. Chunki publitsistik uslubning tadqiqi o'ta murakkab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muloqot jarayonining asl mohiyatini va o'ziga xos qonuniyatlarini atroflicha o'rganish imkonini beradi. Til va siyosat ko'p qirrali mavzu. Uni faqat siyosat tili hodisasining mavjudligi va uning lingvistik maqomini belgilash fakti bilan cheklab bo'lmaydi. Shu o'rinda, olimlar tomonidan nutqning ijtimoiy xoslanishi, ya'ni differensiyalashuvi masalasi ham sotsiolingvistikaning o'rganish obyektiga kirishi borasida juda ko'p fikrlar bildirilgan [11.Б.22].


Mediada nutqning ijtimoiy xoslanishi deganda, auditoriyaning ijtimoiy kelib chiqishi, gender xususiyati hamda qiziqishi, dunyoqarashi bilan bog'liq nutq amali, ularning o'ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlari tushuniladi.

Ushbu mavzu bo'yicha so'rovnoma o'tkazilib, quyida gazeta auditoriyasi hayotida ijtimoiy va siyosiy leksikaning o'rni haqida ma'lumot to'plashimizga yordam bergan savollar keltirildi:

Umumiy savollar:	Sizning yoshingiz? Sizning jinsingiz? Gazetalarni tez-tez o'qib turasizmi? Qaysi gazetalarni afzal ko'rasiz?
Ijtimoiy-siyosiy leksikani idrok etish bo'yicha savollar:	Sizningcha, gazetalardagi ijtimoiy-siyosiy til hozirgi voqealarni tushunish uchun muhimmi? Gazetalarda tushunarsiz yoki qiyin atamalarga qanchalik tez-tez duch kelasiz? Sizningcha, maxsus lug'atdan foydalanish ma'lumotni yanada qulayroq qiladimi yoki aksincha, tushunishni qiyinlashtiradimi?
Ijtimoiy-siyosiy leksikaning ta'siriga oid savollar:	Ijtimoiy-siyosiy leksika sizning maqola yoki yangiliklar haqidagi fikringizga qanday ta'sir qiladi? Sizningcha, gazetxonlarning ongini shakllantirishda qanday til vositalaridan foydalaniladi?
Til afzalliklariga oid savollar:	Siz oddiy so'zlarga ega maqolalarni o'qishni afzal ko'rasizmi yoki murakkabroq matnlarnimi? Qaysi turdagi maqolalarni afzal ko'rasiz: atamalardan faol foydalanilganinimi yoki maxsus lug'atdan minimal foydalanilganinimi?
Yakuniy savollar:	Ijtimoiy va siyosiy leksikaning turli yangilik, xabarlarda berilishida siz uchun tushunarsiz leksika uchraydimi? Ushbu mavzu bo'yicha yana savollaringiz bormi?


Shunday qilib, olib borilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, gazetxonlarnig ijtimoiy-siyosiy leksikani idrok etishini aniqlashga qaratilgan savollar tarkibiga kiruvchi "Sizningcha, gazetalardagi ijtimoiy-siyosiy til hozirgi voqealarni tushunish uchun muhimmi?" deb yuritilgan savolga so'rovnoma qatnashchilarining javoblari quyidagi ko'rsatkichlarni ifodaladi:

1-rasm



Tahlil natijalariga ko'ra qatnashchilarning 79,8 % gazetalardagi ijtimoiy-siyosiy til hozirgi voqealarni tushunish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash maqsadida "albatta" deb javob bergan bo'lsa, qatnashchilar orasida ushbu fikrni inkor etuvchilar 3.2% tashkil etdi. 17% ishtirokchilar esa "qisman" deb mulohaza yuritganini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu tarkibga kiruvchi navbatdagi "Gazetalarda tushunarsiz yoki qiyin atamalarga qanchalik tez-tez duch kelasiz?" savolimizga esa ishtirokchilarimiz quyidagicha fikrlar bildirgan (2-rasm):




Qayd etilgan natijalarda ko'rishimiz mumkinki, gazetxonlarning asosiy qismi, ya'ni 48% gazetalarda tushunarsiz yoki qiyin atamalarga deyarli duch kelmaydilar. 26.7 % gazetxonimiz esa ushbu holatga vaqti-vaqti bilan duch kelishini ta'kidlagan bo'lsa, 12 % ini juda tez-tez duch keluvchi gazetxonlar tashkil etgan. Ishtirokchilar orasida 13.3% tushunarsiz yoki qiyin atamalarga duch kelmaydigan gazetxonlar mavjudligi aniqlangan.

"Sizningcha, maxsus lug'atdan foydalanish ma'lumotni yanada qulayroq qiladimi yoki aksincha, tushunishni qiyinlashtiradimi?" deb keltirilgan savolga esa ishtirokchilarning 86.4 % ini lug'atdan foydalanishni ma'qullovchilar, lug'at qulaylik yaratadi deb biluvchilar tashkil etgan bo'lsa, 13.8 % ishtirokchi esa lug'atdan foydalanishning keragi yo'q ekanligini, lug'at ularga mazmunan tushinishni qiyinlashtirishini ta'kidlagan.

Ijtimoiy-siyosiy leksikaning ta'siriga oid savollar tarkibiy qismiga kiruvchi "Ijtimoiy-siyosiy leksika sizning maqola yoki yangiliklar haqidagi fikringizga qanday ta'sir qiladi?" degan savolimizga esa gazetxonlarning asosiy qismi, ya'ni 89.5% ijobiy javob berib,

quyidagicha asoslar keltirib o'tganlar: "Maqola yoki yangilikda keltirilgan xabar yoki ma'lumotlarning jamiyatdagi ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi", "Qiziqish va tushunish darajamizni o'stiradi, maqola yoki yangiliklar mazmuni yuzasidan fikr yuritishga undaydi", "Ijtimoiy-siyosiy leksika asosida maqolada ilgari surilayotgan g'oya tezroq tushuniladi".


Til afzalliklarini aniqlashga qaratilgan savollar qismida esa, gazetxonlar "Siz oddiy so'zlarga ega maqolalarni o'qishni afzal ko'rasizmi yoki murakkabroq matnlarnimi?" deya keltirilgan savolga quyidagicha javob bergan (3-rasm):



96 % oddiy so'zlarni ma'qul ko'ruvchi gazetxonlar o'z javoblarini "maqola o'qishdan maqsad, unda berilgan yangilikni tushunish, tahlil qilish va kerak vaziyatlarda foydalanishga qaratiladi, shu sababdan ham maqola matnida oddiy va tushunarli so'zlar bo'lishi lozim" desalar 4% gazetxon esa aksincha "maqola matni asosida biz so'z boyligimizni oshirishimiz, murakkab so'zlarni ham qo'llashni o'rganishimiz lozim" deb asoslaydilar.

Navbatdagi "Qaysi turdagi maqolalarni afzal ko'rasiz: atamalardan faol foydalanilganinimi yoki maxsus lug'atdan minimal foydalanilganinimi?" deb berilgan savolga gazetxonlar atamalardan faol foydalanish degan fikrni ilgani surgan va ular atamalarning mazmuni va qo'llanilishiga e'tibor qaratishni taklif qilib, sohalarga yo'naltirilgan maqolalar uchun maxsus atamalardan foydalanish samarali ekanligini keltirib o'tganlar.

"Ijtimoiy va siyosiy leksikaning turli yangilik, xabarlarda berilishida siz uchun tushunarsiz leksika uchraydimi?" deya yakuniy savol sifatida berib o'tilgan ushbu savolda gazetxonlar quyidagi javoblarni keltirib o'tganlar (4-rasm):



Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, gazetxonlar maqola o'qish jarayonida ijtimoiy-siyosiy leksikaning mavjudligini ijobiy baholaydilar, ushbu leksikadan foydalanilgan maqolalarni o'qish gazeta auditoriyasi uchun foydali ekanligini ta'kidlab o'tadilar.

Aytish joizki, ijtimoiy-siyosiy leksikaning til tizimida aks etishi umumiy til tizimiga ijtimoiy-siyosiy nutq sohasiga oid muayyan leksik birliklar, terminlar va iboralarning kiritilishi hamda ishlatilishi bilan tavsiflangan hodisadir. Ijtimoiy va siyosiy voqelikni aks ettiruvchi bu leksik birikmalar til tizimining tuzilishi hamda funksiyasiga, shuningdek, til dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-siyosiy leksikatning til tizimida aks etishi lisoniy va sotsial-madaniy jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasi bo'lib, ma'lum bir til sohasi doirasida o'ziga xos til amaliyoti va xususiyatlarini shakllantiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, publitsistik uslubni sotsiolingvistik tadqiqot markaziga olib kirish va uni atroflicha, to'la-to'kis tadqiq etish nafaqat tilshunoslar, balki jurnalistikani ham qiziqtiradigan muhim vazifalar qatoriga kiritiladi. Bunga OAVda axborotni qayta tayyorlash va auditoriyaga uzatish hamda ushbu jarayonning o'ta murakkab, serqirra ekanligi, insonlar axborot oqimida ruhiy, milliy, ijtimoiy, hududiy jihatlarga ega ekanligi sabab bo'ladi. Zero, milliy tilning ijtimoiy xoslanishlari shu tilda so'zlashuvchilarning ijtimoiy holati bilan bog'liq bo'ladi.

Sotsiolingvistikaning asoschilaridan biri Uilyam Labov "sotsiolingvistika - tilning ijtimoiy matnida, deb ta'rif beradi [1.P.148].

Jahon tilshunosligida tilning sotsiolingvistik xususiyatlariga oid mavzuda Boduen de Kurtene, Ye.D.Polivanov, Ye.P.Yakubinskiy, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, A.M.Selishyev, V.V.Vinogradov, R.O.Shor, M.V.Sergiyevskiy, T.G.Vinokur, F.Bryuno, A.Meye, P.Lafarg, M.Koen, B.Gavranek, A.Matezius, J.Vandriyes, o'zbek tilshunosligida R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, B.O'rinboyev, A.Nurmonov, Yo.Tojiyev, N.Maxmudov, Sh.Iskandarova, M.Saidxonov, A.Omonturdiyev, Q.Rasulov kabi olimlar bir qator izlanishlar olib borganlar.

Siyosiy faoliyat jamiyat hayotida doimo alohida o'rin tutgan. Mamlakatning xalqaro maydondagi o'rni, boshqa davlatlar bilan munosabatlari, jahon hamjamiyati faoliyatidagi o'rni ma'lum bir siyosiy pozitsiya yoki vaziyatga bog'liq. Shu bilan birga, mamlakat imijini aniqlashda ushbu davlatlarning siyosiy rahbarlari tomonidan jahon hamjamiyatiga taqdim etilishi muhim ro'l o'ynaydi. Siyosatchilar chiqishlar orqali ham xalqaro hamjamiyatga, ham o'z mamlakati fuqarolariga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi [17.B.134-137].

Ma'lumki, sotsiolingvistikaning vazifasi - jamiyat faoliyati va rivojlanishida ijtimoiy omillarning til tizimiga ta'sirini o'rganish. Albatta, bunda sotsiolingvistikaning diqqat markazida stratifikatsiya (jamiyatning ijtimoiy sinfiy tuzilishi bilan bog'liq) va situatsion (kommunikativ akt ishtirokchilarining muloqot holati va rol munosabatlari bilan bog'liq) til o'zgaruvchanligi yotadi.

Tilshunos olim Ye.D.Polivanov tilning ijtimoiy tomonlariga e'tibor qaratarkan ekan, sotsiolingvistikaning quyidagi mezoniy xususiyatlarini ko'rsatgan:

- 1) til ijtimoiy-tarixiy fakt sifatida tavsiflanadi;
- 2) tillar va dialektlar sotsiologik nuqtayi nazardan tavsiflanadi, tavsiflashda yangi tushunchalar, masalan, ijtimoiy guruh dialektlari va boshqalar qo'llaniladi;
- 3) muloqot vositasi sifatida qaraladigan tilga baho beriladi;
- 4) ijtimoiy-iqtisodiy va lingvistik hodisalarning sabab-oqibat munosabatlari tahlil qilinadi;
- 5) mavjudlik uchun kurash vositasi sifatida tilni (va uning individual tomonlarini) baholash tahlili o'tkaziladi;
- 6) til evolyutsiyasining madaniyat tarixi bilan bog'liq umumiy-tipologik sxemasi quriladi;
- 7) sotsiologik tilshunoslikning amaliy masalalari ko'rib chiqiladi: til siyosati [13.B.186].

Zamonaviy sotsiolingvistika tilga ta'sir qiluvchi barcha xilma-xil omillarni hisobga olgan holda, tilning ijtimoiy tabaqalanish tuzilishi va jamiyat tuzilishini o'zaro bog'liq (lekin izomorf emas) shakllanishlar deb hisoblaydi. Tilning ijtimoiy tabaqalanishining tuzilishi ko'p qirralidir. U sinfiy, kasbiy, demografik, ijtimoiy-madaniy, psixologik belgilarni o'z ichiga oladi. Jamoaning barcha til resurslari tomonidan shakllantirilgan yagona ijtimoiy-kommunikativ tizimda tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi funksional bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega bo'lib, tizimning munosabatlarini ichki tizimlar emas, balki ijtimoiy aloqalar o'rnatadi [22.B.105].

Nutqda ishlab chiqarishdagi ijtimoiy omillarni hisobga olish va tavsiflash bugungi kunda sotsiolingvistik tadqiqotlarning zaruriy shartlaridan biridir. Shaxsning nutqiy xulq-atvoriga ta'sir etuvchi quyidagi omillar ajratib ko'rsatiladi: ijtimoiy tabaqa, yosh, ma'lumot, kasb, yashash joyi, jins, aloqa kanali, muhit, muloqot mavzusi, shakli, maqsadi, muloqot xarakteri.

Shuni alohida qayd etish lozimki, zamonaviy sotsiolingvistika doirasida tilning ijtimoiy tomonlarini tavsiflovchi tushunchalar tizimi ishlab chiqilgan. Ular orasida: til hamjamiyati, til kodi, ijtimoiy-kommunikativ tizim va til vaziyati ajratiladi. Shu bilan birga, quyidagi funksional bog'liqlik mavjud: nafaqat rolli vaziyat nutq ishtirokchilarining xatti-harakatlari xarakterini belgilaydi, balki tanlangan til vositalari ham ijtimoiy vaziyatni tuzadi va tasdiqlaydi. Til - ishtirokchilarning ijtimoiy mavqeyini tasdiqlovchi asosiy vosita ekanligiga shubha yo'q.

Ma'lumki, til hamjamiyati - bu til va ijtimoiy aloqalar bilan birlashtirilgan jamoa hisoblanadi. Til hamjamiyatining asosiy xususiyati muloqot hamda ushbu jamoa a'zolari o'rtasida barqaror aloqalarning mavjudligidir. Darhaqiqat, muloqot jarayonida til jamoasini aniqlash uchun uning ham lingvistik, ham ijtimoiy jihatlarini hisobga olish kerak. Til hamjamiyatini bir xil tilda gaplashadigan jamoalar sifatida tavsiflash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bitta tilda so'zlashadigan odamlar guruhi biror bir til jamoasini ifodalamasligida mumkin. Shunday qilib, publitsistika aloqa jarayonlarini o'rganish, ijtimoiy o'zaro ta'sirlarini tahlil qilish nuqtayi nazaridan alohida qiziqish uyg'otadi. Ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni tahlil qilish bilimlar tizimini o'rganish bilan bog'liq. Bilimlarni avloddan-avlodga o'tkazish jarayonida dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni hujjatli aniqlik bilan aks ettiruvchi jurnalistik matnlar muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ular dunyoning ham aktual, ham mifologik tasvirini ommaviy auditoriyaga yetkazishi mumkin.

Siyosat tili - siyosat sohasida siyosiy g'oyalarni ifodalash va shakllantirish, jamoatchilik fikriga ta'sir qilish, qo'llab-quvvatlashni safarbar qilish va siyosiy jarayonlarni boshqarish uchun qo'llaniladigan o'ziga xos lug'at, uslub va ritorika. Bu tilga siyosiy nutqqa xos atamalar, iboralar va obrazli vositalar kiradi. Siyosat tili nafaqat siyosiy sohada muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki siyosiy hodisalar to'g'risidagi jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi hamdir. Siyosat tilini tahlil qilish siyosiy muloqotda qanday lingvistik ta'sir strategiyalaridan foydalanilishini va ular siyosiy voqelikning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushunishga imkon beradi.

Binobarin, ijtimoiy-siyosiy terminlar informatsion jihatdan to'yingan til birliklari sifatida kommunikativ jihatdan talabga ega bo'lib, dunyoning ijtimoiy-siyosiy manzarasini boyitishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, matbuot aniq mafkuraviy qarama-qarshilikka ega bo'lib, o'zining lingvostilistik tizimi tubida oddiy fuqarolarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab ritorik vositalar, ya'ni ritorik so'roq, savol va nutq demogogiyasining namunalarini ishlab chiqdi. Faqat oshkoralik davrida "matn qabul qiluvchining ongida dunyo modelini, tasvirini qanchalik o'zgartirishga" qodir ekanligiga ko'pchilik amin bo'ldi [7.B.59]. Ko'rinib turibdiki, bu holda matn nafaqat publitsistik asarni, balki siyosiy-g'oyaviy, qadriy-madaniy voqelikni ham anglatadiki, bular keng kontekstual makon bo'lib, ularda mazmun-ma'no tabiati

aniqlanadi [6.Б.43].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har qanday milliy til o'zida millatning tarixi bilan bir qatorda uning hozirgi ijtimoiy ahvoli, turmush tarzi va tafakkuridagi o'zgarishlar, madaniyati va qadriyatini yaqqol namoyon qiladi. Darhaqiqat, hozirgi zamonda jamiyatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, xalqaro munosabatlar va boshqa sohalarda til muammolari bilan bog'liq eng muhim jihatlardan biri tillarning ijtimoiy maqomi masalasi hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalarni gazeta-publitsistik uslubda yoritish davriy nashrlarda chop etilgan matnlar orqali mamlakat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, sharhlash va uzatish jarayonidir. Bu jarayon muallif fikrini ifodalash, voqealarni tahlil qilish hamda auditoriyaga ta'sir o'tkazish uchun til vositalarni tanlashni o'z ichiga oladi.

### Иқтибослар/Сноски/References

1. Labov W. Sociolinguistic patterns. - Phil., 1974. - P. 148.
2. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. - Тошкент: Фан, 1985. - Б. 199;
3. Бел Р.Т. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы. Пер. с англ. - М., 1980;
4. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. - М.: Просвещение, 1987. - Б. 6-7;
5. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ олатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. - Самарқанд, 1993. - Б. 26;
6. Лысакова И.П. Язык газеты и типология прессы. Социоллингвистическое исследование. - СПб.: Филологические науки СГБГУ., 2005. - Б. 43.
7. Маслоу А.Х. Мотивация и личность. - М., 1964. - Б. 59.
8. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. - Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. - Б. 72.
9. Махмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1997. - Б. 27;
10. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссерт. - Тошкент, 2000.
11. Найман Е.А. Социоллингвистика. - Томск, 2004. - Б. 22.
12. Омонтурдиев А. Ўзбек нутқининг эвфемик асослари. - Тошкент, 2000;
13. Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. - М.: Наука, 1968. - Б. 186.
14. Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 160;
15. Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши. Филол. ф. н.... дис. - Тошкент, 2008;
16. Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши. Филол. фанлари номзоди... дис. автореф. - Тошкент, 1993. - Б. 26;
17. Тибиныко Н.Д. Манипуляция в политическом дискурсе // Вестник Челябинского государственного университета. - № 3 Филология. Искусствоведение. Вып. 50. - Челябинск: Изд-во ЧелГУ, 2011. - Б. 134-137.
18. Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқи. - Тошкент: Фан, 1979. - Б. 36;
19. Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика. Теория, проблемы, методы. - М., 1977;
20. Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика. Теория, проблемы, методы. - М., 1977;
21. Шукуров О.У. Таълимда ўзбек тилининг лексик фондига таъсир қилувчи омиллар хусусида // Science and Education. Scientific Journal, 2020. August. Volume 1. Issue 5. - P. 63.
22. Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. - М., 1957. - Б. 105.
23. Хауруллаев Х. Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2019. (2 (71), 17-20. [https://inlibrary.uz/index.php/foreign\\_philology/article/view/921](https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/921)